

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.01.2020.Ped.02.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

SHAVQIEV ELYOR RAXMONBERDIEVICH

**OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARIDA
RANGSHUNOSLIKKA OID BILIM VA KO'NIKMALARNI
RIVOJLANTIRISH METODIKASI**

13.00.02 – ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (tasviriy san'at).

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Samarqand – 2023

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
Avtoreferati mundarejasi**

**Oglavlenie avtoreferata dissertatsii
doktora filosofii (PhD) po pedagogicheskim naukam**

**Contents of the abstract of dissertation of the doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Shavqiev Elyor Raxmonberdievich

Oliy ta'lim muassasalari talabalarida rangshunoslikka oid bilim va ko'nikmalarni
rivojlantirish metodikasi.....3

Шавқиев Элёр Рахмонбердиевич

Методика формирования знаний и умений, связанных с цветоведением, у
студентов высших учебных заведений.....3

Shavqiev Elyor Raxmonberdievich

Methodology for the formation of knowledge and skills related to color science
among students of higher educational institutions3

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of publications.....

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.01.2020.Ped.02.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

SHAVQIEV ELYOR RAXMONBERDIEVICH

**OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARIDA
RANGSHUNOSLIKKA OID BILIM VA KO'NIKMALARNI
RIVOJLANTIRISH METODIKASI**

13.00.02 – ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (tasviriy san'at).

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Samarqand – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.4.PhD/Ped2009 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz(rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (<http://samdu.uz/ixtisoslashgankengash>) va «ZiyoNET» Axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar

Bulatov Saidaxbor Sobitovich

pedagogika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Abdullaev Sayfulla Fayzullaevich

pedagogika fanlari doktori, professor

Sulaymonov Asqarali Payg‘amovich

pedagogika fanlari nomzodi, professor

Etakchi tashkilot:

Navoiy davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.01.2020.Ped.02.06 raqamli Ilmiy kengashning 2022 yil «___» _____ soat_____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (0366)239-12-29, faks: (0366) 239-13-87, e-mail: kengash-pf@samdu.uz).

Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____-raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (0366)239-12-29, faks: (0366) 239-13-87).

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «___»_____da tarqatildi.

(2023 yil «___»_____dagi_____ -raqamli reestr bayonnomasi).

X.I.Ibraimov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy Kengash raisi, pedagogika fanlari doktori, professor

Sh.R.Urakov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

N.Sh.Shodiev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, pedagogika fanlari doktori, professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahonda ta'lim tizimida ta'lim oluvchilarning estetik-motivatsion tafakkurini rivojlantirish ijodkorlik va kreativlikni tamokillashtirish vositasida sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, tasviriy san'at va amaliy san'at sohasida mutaxassislarning dizayn fikrlashini shakllantirish, rangshunoslikni o'rgatishning didaktik ta'minotini yaratish alohida ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, tasviriy san'at darslarida rangshunoslikka oid bilim, ko'nikma va kompetensiyalarni rivojlantirish, ijodiy, improvizatsion va xalq an'analari orqali mustaqil o'quv-ijodiy faoliyatni va jamoaviy ish shakllarini uyg'unlashtirish, zamonaviy ta'lim, kreativ-didaktik o'yin texnologiyalardan foydalanish metodikasini takomillashtirish muhim vazifalarga aylanmoqda.

Dunyoda tasviriy san'at namunalarini anglash, ranglar kompozitsiyasining emotsional ta'sirchanligini o'rganish, hunarmandchilik va amaliy san'atning tarixiy taraqqiyot bosqichlarini o'rganishga qaratilgan izlanishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, hunarmandchiligimizning tarixiy rivoji, bugungi kundagi ahvoli, tasviriy savdxonlikni tarbiyalash, tasviriy va amaliy bezak san'atining turli sohalarini tadqiq etish, rangshunoslikni o'rgatishning zamonaviy axborot texnologiyalarini yaratishga qaratilgan tadqiqotlar natijalari muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning bilan birgalikda oliy ta'lim muassasalarida tasviriy va amaliy san'at darslarida talabalarning rangshunoslikka oid bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasini fanlararo uzviylik hamda badiiy ta'lim nazariyasiga asoslangan metodikasini takomillashtirish zaruriyati yuzaga kelmoqda.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamdagi o'zgarishlarning muvaffaqiyati dastlab, ta'lim-tarbiya mazmunini o'zgartirish, uni davr talablari asosida yangilash hamda ta'lim oluvchilarning ma'naviyati va intellektual salohiyati darajasining yuksalishi bilan bog'liqdir. "...badiiy ta'lim an'alarini saqlagan holda o'qitishning ilg'or usullarini ishlab chiqish va o'quv jarayoniga ijodiy ustaxonalar faoliyatini tatbiq etish, tasviriy san'at yo'nalishlarida (dastgohli, grafika, mahobatli, miniatyura, haykaltaroshlik) faoliyat olib borayotgan iste'dodli ijodkorlarni saralab olish, ularning estetik saviyasi va mahoratini yuksaltirish"¹ vazifalari belgilangan. Bu esa oliy ta'lim muassasalari tasviriy san'at va amaliy san'at darslarida talabalarning rangshunoslikka oid bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishning zamonaviy texnologiyalari va samarador metodikalarini aniqlash hamda ularni ilmiy asoslashni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrdagi O'RQ-637-son "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan YAngi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2019 yil 29 apreldagi PF-5712-son "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limni tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmonlari, 2020 yil 21

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 21 апрелдаги ПҚ-4688-сон "Тасвирий ва амалий санъат соҳаси самарадорлигини янада оширишга доир чора-тадбирлари тўғрисида"ги Қарори // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 22.04.2020 й., 07/20/4688/0475-сон.

apreldagi PQ-4688-son "Tasviriy va amaliy san'at sohasi samaradorligini yanada oshirishga doir chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarni rivojlan-tirishning asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Xalqimizning uzoq o'tmishida, tarixiy shakllanishi taraqqiyotida va san'at, me'morchilik, tasviriy va amaliy san'at, xalq hunarmandchiligi ham shakllangan, rivojlangan va xalqimizni dunyoga tanitib borgan. Mirak Naqqosh, Kamoliddin Behzod kabi allomalarimiz fan, san'at va adabiyot rivojida o'zlarining munosib xissalarini qo'shganlar.

Milliy hunarmandchiligimizning tarixiy rivoji, bugungi kundagi ahvoli, tasviriy va amaliy bezak san'atining turli sohalarini tadqiq qilish bilan olimlardan S.S. Bulatov, R.H.Xasanov, I.A. Avezova, N.N. Rostovsev, V. S. Kuzin, B.M.Nemenskiy, A. S. Xvorostov, O. K. Opuxitin, P. A. Goncharova, V. R. Razvodovski, M. V. Maksimova, V. I. Shoroxov, T. N. Shpikalova, N. S. Bogolyubov, A. Morozova, I. P. Volkov, M. Mirzahmedov, O. Xudoyorova, R. Rasulova, B. Sergeeva, Yu. P. Saidov, G. A. Chepelevetsky, Q. Q. Qosimov, Yu. V. Maksimova, V.A. Mazur, B. Boymetov, N. Tolipov, U. Nurtoev, S. Abdurasulov, A.Sulaymonov, R.Rajabov va boshqalar "shug'ullanib kelmoqdalar.

O'zbek xalqining tarixi bilan uyg'unlashib ketgan amaliy san'atning 100 dan ortiq tur va janrlari mavjud. Ammo o'tgan yillar davomida ta'lim - tarbiya tizimida o'quv mashg'ulotlari sifatida to'liq o'rganilmasdan kelinib ushbu sohaning tuzilishini milliylik, mahalliy, etnografik, tarixiy xususiyatlarini etarli yoritilmasdan qolishiga sabab bo'lmoqda. Xalq ustalari ijodini, hayoti va faoliyatini, ular ishlagan nodir asarlarni o'rganish, qolaversa yosh avlodga o'rgatish bugungi kundagi dolzarb muammolardan bo'lib qolmoqda.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Ushbu tadqiqot ishi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining "Uzluksiz ta'limni rivojlantirishni zamonaviy strategiyalari" mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi oliy ta'limning tasviriy san'at ta'lim yo'nalishi talabalarini rangshunoslikka oid bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

O'zbekiston Respublikasi ta'lim-tarbiya tizimining tasviriy san'at yo'nalishi talabalarining rangshunoslikka oid bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish metodikalarining tarixiy taraqqiyotini yoritish.

oliy o'quv yurtlarida talabalarining rangshunoslikka oid bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishning mazmuni va metodikasi loyihasi nazariy jihatdan ishlab chiqish va tajribada sinab ko'rish, amalga tadbiriq etish.

tasviriy san'at darslarida talabalarning rangshunoslikka oid bilim va malakalarini rivojlantirishning samarali shakllari, usullari, metodlari va didaktik vositalarini takomillashtirish, na'munalarini tanlash va sinab kurish.

oliy o'quv yurtlarining tasviriy san'at yo'nalishi talabalarni rangshunoslikka oid bilim va malakalarini rivojlantirishda dars va darsdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarning o'rnini aniqlash va natijalari buyicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida oliy ta'lim muassasalari tasviriy va amaliy san'at ta'lim yo'nalishlari talabalarida rangshunoslikka oid bilim va ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlariga Samarqand davlat universiteti, Qarshi davlat universiteti, Navoiy davlat pedagogika instituti, Jizzax pedagogika universitetlaridan jami 560 nafar respondent talabalar jalb etilgan.

Tadqiqotning predmetini oliy ta'lim muassasalari tasviriy san'at ta'lim yo'nalishi talabalarida rangshunoslikka oid bilim va ko'nikmalarni rivojlantirishning samarali shakl, metod, usul, uslub va didaktik vositalari tashkil etgan.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda kuzatish, anketa, test, test-nazorat kompozitsiyalari tuzish; ilmiy-nazariy, pedagogik-psixologik, uslubiy adabiyotlar va vaqtli matbuotda chop etilgan maqolalarni tahlil qilish, Oliy o'quv yurtlarida olib borilayotgan ta'lim – tarbiya jarayoniga oid me'yoriy, huquqiy va arxiv hujjatlarini o'rganish; talabalarning yozma va mustaqil ijodiy ishlari bilan tanishish; olingan ilmiy natijalar va dalillarni matematik qayta ishlash, umumlashtirish hamda xulosalash kabi metodlardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

tasviriy, amaliy va badiiy bezak san'ati ta'limining rangshunoslikka oid bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish imkoniyatlari badiiy ta'lim nazariyasining kognitiv-vizual tamoyillariga ko'ra kolorometrik doira sektoridagi ranglarni to'liq uzunligi asosida tizimlashtirishning badiiy-estetik idrok mexanizmiga ta'sirini belgilash asosida kengaytirilgan;

talabalarning rangshunoslikka oid bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish mazmuni tasviriy savdixonlikning emotsional-hissiy, perseptiv, kreativ komponentlariga oid mezonlarni rangshunoslikka oid kompetensiyalarning shakllanganligini baholash parametrlariga korrelyativligiga asoslanib rangshunoslik qonun-qoidalarini o'zlashtirishning metodik shart-sharoitlariga muvofiq fanlararo aloqadorlikning mexanizmlarini aniqlash orqali takomillashtirilgan;

tasviriy, amaliy va badiiy bezak san'ati ta'lim yo'nalishlarida talabalarning rangshunoslikka oid bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishning metodik imkoniyatlari "KWL", "Uyg'unlik", "Tahlil" va "Ramziylik" kabi mualliflik metodlarining texnologik bosqichlarini taksonomik tasniflash asosida boyitilgan;

auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarda rangshunoslik oid bilim ko'nikmalarni rivojlantirishning didaktik ta'minoti rangshunoslikka oid bilimlarga ega bo'lishning ierarxik bosqichlariga ko'ra badiiy fikrlashni rivojlantirish, o'qitishning noan'anaviy modellaridan foydalanish asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

tasviriy san'at darslarida talabalarining rangshunoslikka oid bilim va ko'nikmalarini shakllantirish uslubiyotini takomillashtirishning mezonlari va ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan;

tasviriy va amaliy san'at ta'lim yo'nalishlarida talabalarining mashg'ulotlar jarayonida shakllantirish va rivojlantirishning mazmuni, shakllari va metodlari asosida "Rangshunoslik" nomli o'quv qo'llanma yaratilgan;

tasviriy san'at darslarida foydalaniladigan metodlar tasnifi ishlab chiqilgan;

"Rangshunoslik fanidan amaliy mashg'ulotlarini bajarish" bo'yicha metodik qo'llanma ishlab chiqilgan;

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi: Respublikamiz va xalqaro miqyosidagi ilmiy-nazariy va amaliy konferensiya materiallari to'plami, OAK ro'yxatidagi maxsus jurnallar hamda xorijiy ilmiy jurnallarda chop etiladigan maqolalar, tadqiqot natijalarini O'zbekiston Respublikasining ko'pgina oliy ta'lim muassasalari o'quv-tarbiya jarayonida sinovdan o'tkazilishi, olingan natijalarning vakolatli organlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati: Tasviriy, san'at darslarida talabalarining rangshunoslikka oid bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishning samarali yo'llari va metodlarini nazariy va ilmiy-metodik yondashuvlar bilan boyitildi. Shuningdek, Tasviriy, san'at darslarida talabalarni rangshunoslikka oid bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish mazmuni, o'ziga xos xususiyatlari, texnologiyalari, uni tashkil etish yo'llari, shakl va metodlari, o'quv-bilish jaryoninini tashkil etishga oid ilmiy-metodik tavsiyalardan ta'lim jaryonida foydalanish imkoniyatlari bilan izohlanadi.

Tadqiqotning natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, dissertatsiya ishida ilmiy-amaliy asoslangan yondoshuv va tavsiyalardan oliy pedagogik ta'lim muassasalarining tasviriy san'at turlari bo'yicha darsliklar, ma'ruza matnlari, maxsus kurslarning mazmuni, yangi o'quv materiallari, talabalarining mahoratini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Oliy ta'lim muassasalari talabalarida rangshunoslikka oid bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish metodikasi bo'yicha ilmiy tadqiqot natijalari asosida:

tasviriy, amaliy va badiiy bezak san'ati ta'limining rangshunoslikka oid bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish imkoniyatlari badiiy ta'lim nazariyasining kognitiv-vizual tamoyillariga ko'ra kolorometrik doira sektoridagi ranglarni to'liq uzunligi asosida tizimlashtirishning badiiy-estetik idrok mexanizmiga ta'sirini belgilash asosida kengaytirishga oid tavsiyalar "Rangshunoslik" nomli o'quv qo'llanma yaratilgan (Samarqand davlat universiteti kengashining 2020 yil 30-martdagi 8-sonli qaroriga asosan berilgan 183-son nashr ruxsatnomasi). Natijada oliy ta'lim

muassasalari talabalarida rangshunoslikka oid bilim va ko'nikmalarni rivojlantirishning metodik imkoni kengaytirilgan;

talabalarning rangshunoslikka oid bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish mazmuni tasviriy savdixonlikning emotsional-hissiy, perseptiv, kreativ komponentlariga oid mezonlarni rangshunoslikka oid kompetensiyalarning shakllanganligini baholash parametrlariga korrelyativligiga asoslanib rangshunoslik qonun-qoidalarini o'zlashtirishning metodik shart-sharoitlariga muvofiq fanlararo aloqadorlikning mexanizmlarini aniqlash orqali takomillashtirishga oid tavsiyalar II3-2014-0829151124 raqamli "Tasviriy san'at ta'limi sifati va samaradorligini oshirishning didaktik imkoniyatlari" nomli grant doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining 2023 yil 15 apreldagi 02-07-1356/04-son dalolatnomasi). Natijada talabalarida rangshunoslikka oid bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish mezonlarni bilishga sharoit yaratilgan;

tasviriy, amaliy va badiiy bezak san'ati ta'lim yo'nalishlarida talabalarning rangshunoslikka oid bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishning metodik imkoniyatlari "KWL", "Uyg'unlik", "Tahlil" va "Ramziylik" kabi mualliflik metodlarining texnologik bosqichlarini taksonomik tasniflash asosida boyitishga oid takliflar II3-2014-0829151124 raqamli "Tasviriy san'at ta'limi sifati va samaradorligini oshirishning didaktik imkoniyatlari" nomli grant doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining 2023 yil 15 apreldagi 02-07-1356/04-son dalolatnomasi). Natijada talabalarida rangshunoslikka oid bilim va ko'nikmalarni ularning kelgusi pedagogik faoliyatida tutgan o'rnini ko'rsatishga sharoit yaratilgan;

auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarda rangshunoslik oid bilim ko'nikmalarni rivojlantirishning didaktik ta'minoti rangshunoslikka oid bilimlarga ega bo'lishning ierarxik bosqichlariga ko'ra badiiy fikrlashni rivojlantirish, o'qitishning noan'anaviy modellaridan foydalanish asosida takomillashtirishga oid tavsiyalar II3-2014-0829151124 raqamli "Tasviriy san'at ta'limi sifati va samaradorligini oshirishning didaktik imkoniyatlari" nomli grant doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining 2023 yil 15 apreldagi 02-07-1356/04-son dalolatnomasi). Natijada talabalar uchun samarali bo'lgan yondashuv va faoliyat turlarini qo'llash yo'llarini takomillashtirish imkoni kengaytirilgan.

Tadqiqotning natijalarining aprobatyasi: Dissertatsiyaning asosiy mazmuni 3 ta xalqaro 2 ta Respublika anjumanlarida muhokama qilinganligi.

Tadqiqotning natijalarining e'lon qilinganligi: Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 13 ta iliy uslubiy ishlar chop etilgan. O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan jurnallarda 8 ta maqola, shundan uchtasi xorijiy, 5 tasi respublika ilmiy jurnallarida chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va xajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat bo'lib, umumiy hajmi 157 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqot ishining maqsad, vazifalari, ob'ekti va predmeti aniqlangan, tadqiqotning fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo'nalishlarga mosligi va tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, e'lon qilinganligi, tadqiqot ishining tuzilishi haqida ma'lumotlar kiritilgan.

Dissertatsiyaning **“Tasviriy san’at darslarida talabalarni rangshunoslikka oid bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirishning nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida Pedagogika oliy o‘quv yurtlarining tasviriy san’at darslarida rangshunoslikka oid bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish muammosi hamda rangshunoslikka oid bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirishda badiiy ta’lim nazariyasining amaldagi holati yoritilgan

“Mamlakatimiz hududida mavjud bo‘lgan to‘rt mingdan ziyod moddiy-ma’naviy obida umumjahon merosining noyob namunasi sifatida YUNESKO ro‘yxatiga kiritilgani ham bu fikrni tasdiqlaydi”. Ularni O‘zbekiston va dunyo olimlari har tomonlama o‘rganib, ilmiy tadqiqot ishlarini olib bormoqda.

Bugungi kunda respublika hukumatining qator hujjatlari Vatanimizning har tomonlama jahon andozalari talablari asosida rivojlanishiga qaratilmoqda. Jumladan, yoshlarga ta’lim-tarbiya berishda madaniyat, qadriyat, milliy san’at namunalaridan, ota-bobolar tomonidan yaratilgan va butun jahonga mashhur bo‘lgan ajoyib san’at namunalaridan keng foydalanishga katta ahamiyat berilmoqda.

“Hozirgi kunda milliy ma’naviyatimiz rivojini tasviriy san’at namunalarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. O‘zbek rassomlarining keyingi yillarda samarali ijod qilib, yangi-yangi yutuqlarni qo‘lga kiritayotgani, bu sohaga ko‘plab yosh iste’dod egalari kirib kelayotgani uning ravnoqi va istiqbolidan dalolat beradi. Bunday ijodiy o‘zgarishlarni monumental san’at sohasida ham kuzatish mumkin”[17]. Lekin ming afsuski ajdodlarimiz rassom, me’mor va ustalarimizning tasviriy, amaliy va me’moriy bezak san’at asarlarini o‘qish va ulardan tegishli mantiqiy fikr olishga etarli badiiy ma’lumotga ega emasmiz. O‘zbekistonning ta’lim tizimida me’morchilik, amaliy san’at, tasviriy san’at turlari, rangtasvir, mahobatli rangtasvir, mahobatli bezak san’ati, kitobot san’ati, miniatyura, sharq miniatyura maktablari, dizayn, haykaltaroshlik va boshqa turlari o‘rgatiladi. Lekin, hozirgacha birorta ham tasviriy san’at, me’morchilik va amaliy san’at turlarini badiiy tahlil qilishning falsafiy, psixologik, astrologik tamoyillari va rangshunoslik bo‘yicha haligacha etarlicha ilmiy tadqiqotlar etarlicha olib borilmagan. Natijada hozirgacha tayyorlanayotgan kadrlarimiz tasviriy, amaliy san’at va me’moriy bezak asarlarini

kitob o'qigandek o'qiy olmaydilar. Bu tayyorlayotgan kadrlarni sifatiga salbiy ta'sir etib kelmoqda.

YOshlarga odob-axloq qoidalarini o'rgatish, ularni ilm-fan sirlarini egallashga jalb etish, savob ishlarni bajarishga yo'naltirish, ijod bilan shug'ullanishga da'vat etishga juda ko'p allomalar o'z asarlarida e'tibor berdilar. Ahmad YUgnakiy (XII asr), Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy (810-870), Abu Iso Muhammad at-Termiziy (824-892), Abu Nasr Forobiy (873-950), Abu Ali ibn Sino (980-1037), Abu Rayhon Beruniy (973-1048), Abu Abdulloh Ja'far Rudakiy (860-941), Nosir Xisrav (1004-1088), YUsof Xos Hojib (XI asr), Maxmud Koshg'ariy (XI asr), Ahmad YAssaviy (1103-1166), Bahouddin Naqshband (1318-1389), Mirzo Ulug'bek (1394-1449), Abdurahmon Jomiy (1414-1492), Alisher Navoiy (1441-1501) kabi ko'plab jahon madaniyatining, ma'naviyatining etakchi allomalari sifatida tan olingan mutafakirlarimiz ham o'z asarlarida yoshlar ta'lim-tarbiyasiga, ularda insoniy fazilatlarining shakllanishiga, foydali mehnat qilishga, ilm-fanni o'rganishga jiddiy e'tiborlarini qaratganlar.

H.Egamovning "Bo'yoqlar bilan ishlash" deb nomlangan metodik qo'llanmasida bo'yoqlar bilan ishlash texnologiyalari rang turlari, rang turlari, ranglarni nomlanishi, rang tanlash va boshqalar bayon etilgan.²

Q.Qosimovning "Naqqoshlik" nomli qo'llanmasida naqqoshlik to'garagi ishini tashkil etish va o'tkazish metodikasi yoritilgan.

Rossiyalik olim professor V.S. Kuzinning badiiy bilim yurti uchun yozilgan "Psixologiya" nomli darsligi tasviriy va amaliy san'at talabalari uchun nihoyatda katta ahamiyatga ega kitob bo'lib, tasviriy va amaliy san'at psixologiyasi juda qiziqarli qilib ilmiy asoslangan manba'lar asosida yozilgan. Darslikning ettinchi bobida tasviriy san'atda ranglarni sezishning qonun – qoidalarining psixologik asoslari rang- barang metodik illyustratsiyalar bilan yoritib berilgan.³

S.S. Bulatov O'zining "O'zbek xalq amaliy bezak san'ati" nomli o'quv-metodik qo'llanmasida o'zbek xalq amaliy san'atining keng tarqalgan turlari, ular haqidagi ilmiy va tarixiy ma'lumotlar haqida amaliy ish usullarini byuayon etgan hamda bu san'at turlarini o'rganish va o'rgatishga doir nazariy-metodik yo'l-yo'riqlar berilgan.⁴

Akademik Malik Nabievning Oliy ta'lim va o'rta pedagogika o'quv yurtlarining badiiy – grafika talabalari uchun "Rangshunoslik va rangtasvir texnologiyasi" o'quv qo'llanmasi rangshunoslik va bo'yoqlar bilan ishlash bo'yicha hayotiy tajribalarini va rangshunoslik bo'yicha xorijiy tajribalar xaqida bayyon etilgan. O'sha davr uchun o'quv qo'llanma sifatida foydalanib kelingan.⁵

R. Xudayberganovning Rangshunoslik asoslari kasb – hunar kollejlari uchun o'quv – qo'llanmasida tabiatdagi ranglarning hosil qilish, ranglarni tarqalishi, bo'yoq va ulardan foydalanish, o'qituvchilarga qo'yilgan zamonaviy talablar va borshqalar xaqida yozilgan. Rassom R. Xudayberganov butun umri davomida

² Х.Эгамовнинг. Бўёқлар билан ишлаш. -Т.: Ўқитувчи, 1981. -58 б.

³ В.С. Кузин. Психология. -М.: "Высшая школа", 1982- с. 256.

⁴ Булатов С.С. Ўзбек халқ амалий санъати. Т.: Мехнат, 1991 -384 б.

⁵ Набиев М. Рангшунослик. -Т.: Ўқитувчи, 1995. -40 б.

to'plagan tajribalari va rangshunoslik bo'yicha nazariy bilimlarini bir tizim asosida berganligi talabalar uchun katta metodik yordam bo'ldi.⁶

N.Yu.Tursunaliyevning Rang texnologiyasi nomli uslubiy qo'llanmasi 2012 yili Yangi asr nashryotida chop etilgan bo'lib, rang tarixi, ranglarning turlari, rangni kelib chiqishining fizikaviy tomonlari, bo'yoq turlarini ishlatish texnologiyasi, bo'yoqlar va ulardan foydalanish texnologiyasi, rang tahlili, ranglarga oid testlar va savolnomalar va boshqalar rangli suratlar bilan tahliliy berilganligi o'quvchida katta ta'surot qoldiradi va rangshunoslikka bo'lgan qiziqishini oshiradi.⁷

S.S.Bulatovning "Rangshunoslik" darsligida, rang tarixi, rangshunoslikda ishlatiladigan bo'yoqlar va asbob-uskunalar, rangshunoslikka oid mashqlar tizimi, naqsh kompozitsiyalarni bo'yash texnologiyasi va boshqalar atroflicha yoritib berilgan.⁸

O'zbekiston va xorijlik olimlarning ham ko'plab ilmiy-tadqiqot ishlarida pedagogik jaryonida ranglarni psixologik, tarbiyaviy, mantiqiy va falsafiy tomonlari ma'lum darajada o'rganilgan. Olmon olimlari Фрилинг Г., Ауэр К. Человек-цвет-пространство kitobida amaliy rang psixologiyasi, inson va rang, yorug'lik va rang, binolarni bo'yashda ranglarni tanlash, amaliyotda ranglarni ishlatishning psixologik tomonlari yoritilgan.⁹

Professor M.Nabievning "Rangshunoslik va rangtasvir texnologiyasi" qo'llanmasi tasviriy san'at, rassomchilik o'quv yurtlari, tasviriy san'atdan mashg'ulotlar olib boradigan muallimlarni, mutaxassislarni tayyorlaydigan pedagogika oliy va o'rta o'quv yurtlari uchun mo'ljallangan.¹⁰

Ranglar nomini standartlashtirish muxim ahamiyat kasb etadi. N.Nyurberg va R.Lyuter asos solgan kolorimetrik (ranglarga o'lchashga doir) tizim bunga imkon yaratdi. Mazkur sistema vositasida sakkiz millionga yaqin rangni maxsus raqamlar bilan belgilab chiqish mumkin.

N.Nyurberg va R.Lyuterlarning kolorimetrik sistemasini kamalakning ettita rangi tarkibida terib chiqilgan sektorlardan iborat doira tarzida ta'savvur qilish mumkin. O'z navbatida bu sektorlar doira markaziga yaqinlashgan sari oqarib, doira markazidan uzoqlashgan sari qorayib boradi. Doira radiusining taxminan o'rtalaridan bir gardish o'tganki, undan eng to'yingan kamalak ranglari o'rin olgan.

Kolorimetrik doira sektorlaridagi barcha ranglar ana shu gardishdagi ranglar nomi umumlashtiriladi. Ruscha terminologiyada udar quyidagicha nomlangan: 1-красный (510-490 va 700-600 nm to'lqin uzunligiga ega bo'lgan ranglar), 2-оранжевый (600-580 nm to'lqin uzunligiga ega bo'lgan ranglar), 3-жёлтый (580-570 nm to'lqin uzunligiga ega bo'lgan ranglar), 4-зелёный (570-492 nm to'lqin uzunligiga ega bo'lgan ranglar), 5-голубый (492-480 nm to'lqin uzunligiga ega bo'lgan ranglar), 6-синий (480-470 nm to'lqin uzunligiga ega bo'lgan ranglar),

⁶ Худайберганов Р. Рангшунослик асослари. . : -Т.: Гофур Фулом номидаги нашрёт-матбаа ижодий уйи, 2006. -92 б.

⁷ Турсуналиев Н.Ю.Ранг технологияси. -Т.: Янги аср нашрети.2012. 64 б.

⁸ Булатов С.С. Рангшунослик. Т.: Ўзбекистон файласуфлар миллий жамияти нашрети, 2009-160 б.

⁹ Фрилинг Г., Ауэр К. Человек-Цвет-пространство. Пер с нем. М. Стройиздат, 1973. С. 141

¹⁰ Набиев М. Рангшунослик ва ранглар технологияси. -Т.: Ўқитувчи, 1995, 40 б.

7-фиолетовый (470-565 mm to'liqin uzunligiga ega bo'lgan ranglar), 8-пурпурный (560-600 mm to'liqin uzunligiga ega bo'lgan ranglar).


Dissertatsiyaning **“Tasviriy san’at darslarida talabalarni rangshunoslikka oid bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish metodlari, shakl va vositalari”** deb nomlangan ikkinchi bobida oliy ta’lim tizimida talabalarni rangshunoslikka oid bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish metodlari, shakl va vositalari didaktik tizimi, rangshunoslikni o‘rgatishda fanlararo uzviylikni tashkil etish mexanizmlarini takomillashtirish yo‘nalishlari ilmiy asoslangan, talabalarning rangshunoslikka oid bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirishning innovatsion metodlari amaliyotga tadbiq etilgan.

Ma’lumki fanlararo aloqadorlik qonuniyatlari ta’lim samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida qo‘llanib kelinadi. SHu ma’noda amaliy va badiiy bezak san’ati o‘quv fanining boshqa o‘quv fanlari bilan aloqadorligi badiiy ta’lim sifati va samaradorligini oshirishning qo‘shimcha imkoniyati sifatida ahamiyatlidir. Jumladan, talabalarning rangshunoslik, rang texnologiyalariga oid bilimlarini rivojlantirishda fizika, ximiya, tarix, falsafa va boshqa fanlariga oid bilimlarning ahamiyati beqiyosdir.¹¹

Tasviriy san’atdan talabalarning savodxonlik darajalarini rivojlantirishda sohaning qonuniyatlari xaqidagi bilimlar muhim o‘rin tutadi. Amaliy san’atni boshqa fanlar bilan integrativ tarzda o‘qitish badiiy ta’lim sifati va samaradorligini oshirishda joylashtirish, simmetriya, nisbat, marom, harakat kabi qonuniyatlarini o‘zlashtirishda qo‘shimcha didaktik imkoniyatlarni taqdim etadi.

Har qanday o‘quv fanidan ta’lim sifati va samaradorligini oshirishning muhim pedagogik shartlari mavjud shunday shartlar sirasida, shubhasiz ta’limning didaktik tamoyillari e’tirof etiladi. Ta’limiy jaryonning kontekstidan, muayan bosqichdagi ta’limiy va tarbiyaviy maqsadlardan, shuningdek, o‘quv fanlarining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda u yoki bu didaktik tamoyillar qo‘llaniladi. Amaliy san’at ta’limi tarihi va nazariyasi, ta’lim amaliyotining tahlilidan ayonki, ta’limning bu sohasida ko‘rgazmalilik, fanlararo aloqadorlik, uzviylik va uzluksizlik tamoyillari ustvor tarzda qo‘llaniladi. Chunki talabalarda tasviriy savodxonlikni shakllantirishda, demakki, badiiy ta’lim sifati va samaradorligini oshirishda bu tamoyillar alohida ahamiyat kasb etadi. Tasviriy san’at ta’limi sifati va samaradorligini oshirishda uning mazmunini, talabalarning badiiy mushohadasini boyitadigan manba’lardan unumli foydalanish tavsiya etiladi. Ayniqsa, talabalarining, mantiq, estetika kabi fanlarda olgan bilimlaridan foydalanish talabalarning kompozitsion faoliya borasidagi harakatlarida asqotadi. Jumladan, tarixiy manba’lar hamda badiiy asar syujetlari asosida kompozitsiya ishlashda ta’sirchan mavzu sifatida tanlashi mumkin.

¹¹ Сулаймонов А. Тасвирий санъат таълими сифати ва самарадорлигини оширишнинг дидактик имкониятлари. Монография. –Тошкент . “BAYOZ”, 2017.. 163-164 бетлар. (184 б)



1-rasm. Tasviriy san'at darslarda asarlarni badiiy tahlili jaryonida talabalarning mantiqiy fikrlashi orqali rangshunoslikka oid bilim va ko'nikmalarini shakllantirish modeli.

Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi yo'nalishidagi oliy ta'lim muassalarida maxsus fanlar bilan bir qatorda gumanitar va ijtimoiy fanlar, matematika va tabiiy ilmiy fanlar va umumkasbiy fanlar o'qitiladi. SHu bois, mazkur fanlarni o'z'aro, bir-biri bilan uzviy aloqadorlikda bog'lab olib borish ta'lim samaradorligini oshiradi(1-rasm). Rasmda oliy ta'lim muassasalarida gumanitar va ijtimoiy fanlar, matematika va tabiiy ilmiy fanlar va umumkasbiy fanlararo, amaliy va bezak san'atini o'zaro bir-biri bilan aloqadorlikda bo'lishi ko'rsatilgan. Unda talaba oliy talimda umumta'lim fanlari va amaliy bezak san'tini o'rganadilar.

Darslarni sifat va samaradorligini oshirishda gumanitar va ijtimoiy fanlar ya'ni O'zbekiston tarixi, falsafa, madaniyatshunoslik, ma'naviyat asoslari kabi;

matematika va tabiiy-ilmiy fanlar ya'ni oliy matematika asoslari, plastik anatomiya, ekalogik va tabiatni muhofaza qilish, informatika va axborot texnologiyalari kabilar; umumkasbiy fanlar ya'ni umumiy psixologiya, tasviriy san'at, rangtasvir va kompozitsiya, xaykaltaroshlik, chizmachilik kabi fanlar bilan o'z'aro holda amalga oshiriladi.

Rangshunoslik asoslarini o'rgatish jaryonida fanlararo aloqadorlik, badiiy tahlil jaryonida va ranglar ramzini o'rgatish orqali talabalarni rangshunoslikka oid bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish orqali quydagi natijalarga erishish mumkin:

1. Talabalar tasviriy san'attarixi, mantiq, falsafa, O'zbekiston tarix, ekologiya, matematika, chizmachilik, rangtasvir, kompozitsiya kabi bir qancha o'quv predmetlarini bog'lab o'tilishi jaryonida ortirilgan nazariy bilimlarini amaliyotga tadbiq etish imkoniyatiga ega bo'ladilar.


2. Fanlararo aloqadorlik talabalarning bilim darajasini yanada boyitishga yordam beradi va ular kelajakda ana shu nazariy va amaliy tushunchalaridan tushungan holda foydalaniladigan bo'ladi.

3. Rangshunoslik asoslarini o'rganishda va ulardan tushungan holda o'z ish tajribalaridan foydalanish jaryonida talabalarda qat'iylik, mustaqillik va har bir ishning o'ziga xos xususiyatlardan kelib chiqqan holda amalga oshirish kabi malakalarni o'zlashtiradilar.

4. Tasviriy san'at shu jumladan naqqoshlik san'at tarixini o'rganishda va kompozitsiya mavzularida ustalarimizni naqsh kompozitsiyalarini badiiy tahlil qilish jaryonida talabalarni rangshunoslikka oid bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish dars samaradorligini oshiradi.


5. Dars jaryonida ranglarni ramziy ma'nolarini o'rgatib borish talabalarni ranglar orqali voqeyliklarni ifodalashga o'rganadi. Tabiiyki talabalarning rangshunoslikka oid bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishga olib keladi.

Talabalarga rangshunoslik asoslarini o'rgatishda predmetlar va fanlararo aloqadorlik xususiyatlarini tushungan holda foydalanish lozim. (2-rasm)




2-rasm. Rangshunoslikni fanlararo bog‘liqligi

Dars samaradorligini oshirish uchun o‘zimizning uchta metodikamizni ishlab chiqdik ular: “Tahlil” metodi, “Uyg‘unlik” metodi va “Ramziylik” metodi. SHu metodlar asosida dars samaradorligini oshirish yo‘llarini ishlab chiqdik. Talabalarni rangshunoslikka oid bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirishda innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanish modeli asosida darsning sifat–samaradorligini oshishiga olib keldi. (2.2-rasm.)



Darslarda asarlarni badiiy tahlil jaryonida talabalarning mantiqiy fikrlashi orqali rangshunoslikka oid bilim va ko'nikmalarini shakllantirish tizimi ta'lim - tarbiya samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida qo'llanib kelinadi.

2.1 –rasm. Talabalarni rangshunoslikka oid bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishda innovatsion ta'lim texnologiyalari dan foydalanish modeli.



2.2-rasm. Biz tomonimizdan ishlab chiqilgan metodlar.

“Uyg'unlik” metodi. Ushbu metodni maqsadi dars jarayonida o'tiladigan predmetni va mavzusini boshqa fanlar bilan bog'lab o'tish, qiyoslashga xar bir o'rganilayotgan mavzuni xar tomonlama va chuqur o'rganishdan iborat. Talabalarni erkin, mustaqil, ijodiy izlanishga va xar tomonlama echimini topishga o'rganadilar. Dars davomida tasviriy yoki amaliy sanat turlaridan foto nusxasi tarqatadilar. Ularni boshqa fan bilan bog'lab mustaqil ishlaydilar. Avval o'qituvchi “Uyg'unlik” metodi asosida tushuntirib beradi, keyin esa talabalar fikr mulohazalarni chizib yoki og'zaki tushuntirib beradilar. O'qitilgan yoki o'qitiladigan fanlar tarix, falsafa, estetika, etika, fizika, astronomiya, manaviyat, chizmachilik kabilar bilan bog'lanib o'rgatiladi. Bu integratsion yondashuv dars samaradorligini oshiradi. Masalan Ulug'bek madrasasi naqshini tahliliqilinadi fanlar aro bog'liklari ochib beriladi.

“Ramziylik” metodining maqsadi: Dars jaryonida talabalarni tasviriy va amaliy san'at asarlarini ramziy o'qish alifbosini va asarlarni badiiy, psixologik, mantiqiy tahlil qilishni hamda asarlarni mazmun-mohiyatini anglashga o'rgatish. SHu asosida dars samaradorligini oshirishga erishish. Talabalar amaliy san'at asarlarini ramziylik metodi orqali muammo echimini topish, guruh yoki yakka tartibda bajargan ishini erkin bayon eta lolish, boshqalar fikrini hurmat bilan qarash, o'z fikrini o'z o'rinda bildirga olishga o'rganadilar. Masalan amaliy va badiiy bezak san'ati darslaridagi ranglarni ramziy o'rganishga yordam beradi.

“Tahlil” metodi. Rangshunoslik fanini o'qitishning modullik texnologiyalarini shlab chiqildi va talim amaliyotiga tadbiq etildi.

Yaratilgan “Tahlil” metodi talabalar jamoa va yakka tartibda qatnashadi. O'qituvchi tasviriy va amaliy sanat asarlarini badiiy, mantiqiy, falsafiy, psixologik,

astrologik kabi tahlil turlari o'rgatiladi. Ushbu tahlil turlaridan biri "Tahlil" metodida o'rgatiladi. Biron naqsh kompozitsiyasini tahlil qilib o'rgatiladi. Tahlil qilishda oddiy jadval asosida bir tomoniga naqsh bo'laklarini nomini yozib boriladi va ikkinchi tomoniga ramziy manosi yoziladi. Jadvallar asosida yakka xolda 2 ta yoki guruhlariga bo'linib berilgan naqsh kompozitsiyasi yoki tasviriy sanat asarlarini badiiy tahlil qiladilar. Musobaqa asosida doskada guruhlariga ball qo'yib boriladi. Eng yaxshi guruh rag'batlantiriladi. Xuddi shu usulda asarlarni mantiqiy falsafiy, psixologik usullarda tahlil qilinadi. Masalan ranglarni o'rganish jarayonida talabalarga rang nomlari yozib boriladi. Ikkinchi tomonga esa ularni ramziy manosi yozib boriladi. Fikrlar umumlashtirilib xulosadanadi. "Badiiy tahlil" usulni maqsadi dars jarayonida talabalar erkin, mustaqil, tanqidiy fikrlashga izlanishga, taqqoslash usuli yordamida berilgan topshiriqlarni kelib chiqqan xolda muammo echimini topish, mustaqil bajargan ishini erkin bayon eta oladigan o'zini o'zi baxolash boshqalar fikriga hurmat bilan qarash kerakki fikrni o'z o'rnida bilimlariga, badiiy asarlarni mantiqiy fikrlashga, go'zallik qalbidagi xikmatni o'qishni o'rganadilar

"KWLH" metodi. Mazkur metod talabalarga o'zlashtirilishi lozim bo'lgan mavzuni qabul qilish va mavzu yuzasidan bilimlarni tizimlashtirish maqsadida qo'llaniladi, shuningdek, bu metod talabalarning qiziqishlari, imkoniyatlari bo'yicha qo'yidagi jadvalda berilgan savollarga javob topish mashqi vazifasini belgilaydi.

Know – nimalarni bilaman?

Want – nimani bilishim kerak?

How - qanday bilib olsam bo'ladi?

Learn - nimani o'rganib oldim?

2.1-jadval **"KWLH"** metodidan foydalanishga doir namuna

"KWLH" metodi	
1. Rangshunoslik xaqida nimalarni bilaman:	2. Rangshunoslik xaqida nimalarni bilishni xohlayman, nimalarni bilishim kerak:
3. Rangshunoslik xaqidagi ma'lumotlarni qanday qilib bilib va topib olaman:	4. Rangshunoslik nimalarni bilib oldim:

Dissertatsiyaning **"Amaliy va badiiy bezak darslarida talabalarni rangshunoslikka oid bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish yuzasidan tajriba sinov ishlari va uning samaradorlik darajasi"** deb nomlangan uchinchi bobida talabalarning rangshunoslikka oid bilim va ko'nikmalarini rivojlanganlik darajasini aniqlash mezonlari ishlab chiqilgan, tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va natijalari tahlili tadqiqot muammolari yuzasidan tajriba ishlari natijalari ochib berilgan.

Dastlabki tajriba-sinov ishlarini o'tkazish uchun quyidagi oliy o'quv yurtlari tanlandi. Mazkur bosqichda Samarqand davlat universiteti, Qarshi davlat universiteti, Navoiy davlat pedagogika institut, Jizzax pedagogika institutlaridagi mavjud dasturlar, majmuallar mavjudligi, ulardan foydalanish holati va kamchiliklari o'rganildi. Guruh talabalari bilan ayrim mavzular yuzasidan amaliy

ishlar o'tkazishni rejalashtirdik. Mazkur tajriba ishlarini o'tkazishdan maqsad, talabalarning rangshunoslikka oid bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishni qay tartibda takomillashtirish yo'llarini aniqlab olish edi. Navbatdagi o'quv yillarida ham ana shu guruh talabalari bilan (2-3 o'quv yillarida ham) tajriba ishlarini davom ettirish nazarda tutuldi.

Biz ilmiy-tadqiqot ishini tashkil etish uchun tanlagan har bir oliy o'quv yillari davomida ikkitadan parallel guruhlarini ajratib oldik. SHunga ko'ra ulardan biri – "nazarot", ikkinchisi esa "tajriba" guruhlarini bo'lib xizmat qiladi.

Tajriba guruhlarida rangshunoslik mashg'ulotlari yuzasidan ta'lim berish biz tomonimizdan tuzilgan dastur asosida olib borilishi, nazorat guruhlarida esa dars amalda qo'llanilayotgan dastur bo'yicha o'tkazilishi nazarda tutildi.

Nazorat va tajriba guruxlardagi barcha talabalarning rangshunoslik darslari bo'yicha bajargan ishlarini o'quv yili oxirigacha yig'ib borishlari, so'ng tajriba o'tkazuvchi rahbarga topshirishlari kerakligi eslatildi. Talabalar tomonidan bajarilgan ishlarni baholashda esa dasturda ko'rsatilgan har bir guruh bo'yicha o'quv yili oxirida "bilishlari" va bajara olishlari kerak bo'lgan mezonlarga rioya qilindi. Bundan tashqari, talabalarning dars jaryonidagi faoliyatlari hamda ish natijalariga ko'ra biz tomonimizdan ishlab chiqilgan mezonlar asosida maxsus jadvallar ham to'ldirib boriladi. Bu mezonlar rangshunoslikka oid mavzularga aloqadordir.

Talabalarning rangshunoslik mavzulari bo'yicha bajargan o'quv topshiriqlarining natijalarini tahlil qilish uchun "YUqori", "O'rta" va "Past" darajalar mezon sifatida tanlandi. Har bir darajaning o'ziga hos talablari bo'lib, talabalar tomonidan bajarilgan ishlar ana shu talablarga ko'ra baholanadi va kerakli ko'rsatkichlar olinadi. Bunda:

"YUqori" daraja – o'quvchilar tomonidan bajarilgan o'quv topshiriqlari dasturida ko'rsatilgan talablarga mos keladi. Bajarilgan ish sifati, mazmuni va ishlanish texnologiyasi nazarda tutilgan ko'rsatkichlarga mos keladi (Masalan, naqsh va bezaklarning shakli, simmetrikligi, ranglari, tanlangan rang tuslari, ritm, kompozitsiya qoidalari tanlangan shaklning buyum sirtiga mosligi va boshqalar).

"O'rta daraja" – yuqorida ko'rsatilgan talablardan ayrimlariga rioya qilmagan talabalarning ishlarini baholashda qo'llaniladi. (Masalan naqsh va buyum bezaklarining shakli, simmetrikligiga, rang tuslarining o'zaro bog'liqligiga kam rioya qilingan. Lekin ishning sifati talablar darajasida.)

"Past daraja" – yuqorida ko'rsatilgan mezonlarga qisman rioya qilingan, ish sifati talablar darajasida bo'lmagan va naqsh ishlash talablariga rioya qilinmagan naqshlar va buyum bezaklarini ishlagan o'quvchilarning bajargan ishlarini baholashda qo'llaniladi. Bunda materialshunoslik dasturi talablari talaba tomonidan kerakli darajada bajarilmagan.

YUqorida qayd etilgan mezonlar asosida biz tadqiqotlarimizni olib borayotgan oliy ta'lim muassasalaridan jumaladan: Samarqand davlat universitetidan 138 nafar, Qarshi davlat universitetidan 132 nafar, Navoiy davlat pedagogika institutidan 142 nafar, Jizzax pedagogika institutidan 148 nafar jami: 560 nafar

(tajriba guruhlarida 282 nafar, nazorat guruhlarida 278 nafar) talabalar ishtirok etishdi.

1-jadval

Talabalarda rangshunoslikka oid bilim va ko'nikmalarni rivojlantirishning samaradorlik darajasini aniqlash yuzasidan tajriba boshidagi ko'rsatkichlar.

№	Mezonlar	Tajriba guruhi. N = 282			Nazorat guruhi. N = 278		
		YUqori	O'rta	Past	YUqori	O'rta	Past
1	Rang nomlari	77	95	110	71	98	109
2	Rang tusi	76	99	107	70	97	111
3	Rang koloriti	72	101	109	71	98	109
4	Rang yorqinligi	74	103	105	73	101	104
5	Rang jozibasi	75	96	111	69	96	113
6	Rang to'yinganligi	75	97	110	70	94	114
7	Ranglarni vazminligi	74	98	110	72	97	109
8	Ranglar kontrasti	65	105	112	69	100	109
O'rtacha		73,5	99,2	109,3	70,6	97,6	109,8

Olingan natijalarni tahlil qilish uchun Styudent – T mezoni tanlandi.

2-jadval

Talabalarda rangshunoslikka oid bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan amaliy ko'nikmalarining tajriba-sinov yakunida rivojlanganlik darajasi.

№	Mezonlar	Tajriba guruhi. N = 282			Nazorat guruhi. N = 278		
		YUqori	O'rta	Past	YUqori	O'rta	Past
1	Rang nomlari	112	104	66	72	104	102
2	Rang tusi	110	106	66	71	101	106
3	Rang koloriti	110	103	69	72	93	113
4	Rang yorqinligi	114	105	63	75	100	103
5	Rang jozibasi	110	99	73	80	100	98
6	Rang to'yinganligi	111	103	68	73	105	100
7	Ranglarni vazminligi	110	103	69	72	99	107
8	Ranglar kontrasti	110	103	69	73	99	106
O'rtacha		110,9	103,3	67,8	73,5	100,1	104,4

Tajriba natijalarining o'rtacha qiymatlari

Tajriba davri	O'quvchilar soni	Javoblar soni		
		A'lo O'rtacha	Yaxshi O'rtacha	Qoniqarli O'rtacha
Tajriba boshida	282	73,5	99,25	109,25
Tajriba yakunida	282	110,9	103,3	67,8

1- rasm Tajribaning samaradorlik darajasi

Tajriba dastlabki holatida	Tajriba yakuniy holatida
talabalar soni 282	talabalar soni 282
A'lo 73,5	A'lo 110,9
Yaxshi 99,25	Yaxshi 103,3
Qoniqarli 109,25	Qoniqarli 67,8
Sifat kursatkichining uzgarishi: -> 14 %	
Samaradorli koeffitsiyenti: -> 0,932670139185381	
Bajarish	Yangilash
	Chiqish
Kuzatilgan qiymat 4,20524468657897	
H0: gepoteza rad etiladi	H1: gepoteza qabul qilinadi
Kritik nuqtasi 2,33	

Olingan natijalardan o'qitish samaradorligini baxolash mezoni birdan kattaligi va bilish darajasini baholash mezoni noldan kattaligini ko'rish mumkin. Bundan ma'lumki, tajriba guruhidagi o'zlashtirish nazorat guruhidagi o'zlashtirish yuqori ekan. Demak, Oliy pedagog ta'lim talabalarda rangshunoslikka oid bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan amaliy ko'nikmalarning samaradorlik darajasini aniqlash yuzasidan o'tkazilgan tajriba – sinov ishlari samarador ekan. Samaradorlik darajasi 1.4 barobarga yani 14% ga oshganligini (3.2.1 rasimga qarang) ko'rishimiz mumkin.

UMUMIY XULOSALAR

Oliy ta'lim talabalarini rangshunoslikka oid bilimlarini rivojlantirishga qaratilgan amaliy san'at darslarida talabalarni naqsh ishlash jaryonida eksperimental tadqiqi dissertatsiyada ilgari surilgan ilmiy g'oyalarni samaradorlik darajasini aniqlash imkonini berdi. Shu yo'nalishda tadqiqotning mazkur bobi natijalari yuzasidan quydagi xulosalarni shakllantirildi.

1. Oliy ta'lim talabalarini rangshunoslikka oid bilimlarini rivojlantirishga qaratilgan turli metodlardan foydalanish Oliy ta'lim muassalari talabalari tomonidan egallagan nazariy va amaliy bilim va ko'nikmalari mustaxkamlashda ko'maklashadi, professor-o'qituvchilarning dunyoqarashlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

2. Taklif etilgan uslubiyat ta'lim sifatini yaxshilaydi, tezlashtiradi, rangshunoslikka oid bilim va ko'nikmalari rivojlanishini ta'minlaydi, naqshlarni sifatli darajaga chiqishini ta'minlaydi.

3. Xar bir mavzu boshida tayyorgarlik mashqlarini o'tkazilishi, o'qitish usullarining nazariy va amaliy asoslarini ko'rib chiqilishi, tahlil qilinishi, mashqlarni bajarilishini talabalar bilimining takomillashtirilishi va rivojlanishining istiqboliga metodik asoslarini belgilab beradi.

4. Taklif etilayotgan amaliy mashqlar tizimi talabalarning rangshunoslikka oid bilim va ko'nikmalarini rivojlanishini ta'minlash bilan birga ranglarni ramziy o'qish va ularni mantiqiy fikr yuritishga hamda kasbga bo'lgan qiziqishlari va intilishlarini ro'yobga chiqarishga yordam beradi.

5. Tajriba-sinov ishlari jaryonida biz tomonidan taqdim etilgan metodika Oliy ta'lim talabalarini rangshunoslikka oid bilim va ko'nikmalarini rivojlanganligini aniqlashda kutilgan samaradorlikka erishish imkonini berdi. Bu esa tadqiqot konsepsiyasi to'g'riligini tasdiqladi.

O'tkazilgan pedagogik tadqiqot ishlarining to'g'ri tashkil etilishini ta'minlaydigan metodik qo'llanma, tavsiyanomalar, har-xil mazmun va shakldagi tarqatma materiallar to'plami, oddiy va noananaviy testlar, materiallar to'plami, mashqlar tizimini ishlab chiqilgan hamda ularni eksperimental tadqiqotlar jaryoniga tatbiq qilinishi tadqiqotning mazkur bosqichini belgilangan reja asosida olib borilishini ta'minlaydi va kutilgan natijalarni olish imkoniyatini berdi.

E'LON QILINGAN ISHLAR RO'YXATI
SPISOK OPUBLIKOVANNYX RABOT
LIST OF PUBLISHED WORKS

I bo'lim (I chast; I part)

1. Shavqiyev E. R. Tasviriy va amaliy san'atni o'qitishda rangshunoslikning o'ziga xos xususiyatlari // Ilmiy axborotnoma. - Samarqand: SamDU nashri, 2014 № 4. B.139-141 b.
2. Shavqiyev E. R. Yuksak malakali tasviriy va amaliy san'at o'qituvchilarini kasbiy tayyorlash zamon talabidir. // Ilmiy axborotnoma. - Samarqand: SamDU nashri, 2019 № 4. B.98-100 b.
3. Shavqiyev E. R. Rangshunoslik fani bo'yicha ta'lim sifatini oshirishda yangi pedagogik texnologiyalarning ahamiyati//Xalq ta'limi. Ilmiy-metodik jurnal. -T.: 2021 №6. B.73-75 b
4. Shavqiyev E. R. Color and its role in human life. //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal <https://saarj.com> **Academicia** ISSN: 2249-7137 Vol. 10, Issue 12, December 2020 Impact Factor: SJIF 2020 = 7.13 1277-82 b
5. Shavqiyev E. R. Rangshunoslikning amaliy san'at va me'morchilikni o'qitishdagi ahamiyati //GOSUDARSTVENNOE VYISSHEE UCHEBNOE ZAVEDENIE «Pereyaslav-Xmelnitskiy gosudarstvennyy pedagogicheskiy universitet imeni Grigoriya Skovorody». -Materialy X Mejdunarodnoy nauchno-prakticheskoy internet-konferensii «Gumanitarnoe prostranstvo nauki: opyt i perspektivy» 10 aprelya 2017 goda, 2017-yil
6. Shavqiyev E. R. Ranglarninig ramziy ifodalanishi// Ministersvo Narodnogo Obrazovaniya Respublika Uzbekistan, Uzbekskiy Nauchno – issledovatel'skiy institut pedagogicheskix nauk im.T.N.Karim-niyazi. Formirovanie garmonichnogo pokoleniya v sovremennyx usloviyax. CHast 8. Tashkent-2012 B. 133-134
7. Shavqiyev E. R. Tasviriy va amaliy san'at mashg'ulotlarini o'qitishda sharq allomalarining rangshunoslik haqidagi fikrlarini o'rganish. // O'rta asrlar sharq allomalari av mutafakkirlari tarixiy merosida san'at va madaniyat masalalari mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy va amaliy konferensiya materiallari to'plami.. - 2018yil 5-7 may, 2018-yil.
8. Shavqiyev E. R. The importance of teaching chromatics to students// ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. -Vol. 12, Issue 01, January 2022 SJIF 2021 = 7.492, 2022-yil. <https://saarj.com>

II bo'lim (II chast; II part)

9. Shavqiyev E. R. Rangshunoslik (O'quv qo'llanma) SamDU tahririy-nashriyot bo'limida chop etildi. 140104, Samarqand sh., Universitet xiyoboni, № 136. 2020 y
10. Shavqiyev E. R. Talabalarda rangshunoslikka oid bilimlarini rivojlantirishning pedagogik texnologiyalari.(Metodik qo'llanma) "Tafakkur bo'stoni" nashriyoti Toshkent -2012.

11. S.S. Bulatov , Shavqiyev E. R O'qituvchilarini milliy koloridga oid bilimlarini shakillantirishning mantiqiy asoslari //Ministersvo Narodnogo Obrazavaniya Respublika Uzbekistan, Uzbekskiy Nauchno – issledovatel'skiy institut pedagogicheskix nauk im.T.N.Karim-niyazi. Formirovanie garmonichnogo pokoleniya v sovremennyx usloviyax. CHast 8. Tashkent-2012 B. 125-128
12. Shavqiyev E. R O'qituvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirishda to'g'arak mashg'ulotlarining o'rni//“Amaliy fanlar bo'yicha maktabdan tashqari ta'lim jarayonida o'quvchilar ijodkorligining holati va uni yanada takomillashtirish yo'llari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konfratsiyasi materiallari to'plami. Samarqand -2016y. 359-361 bet. 30 aprel.
13. Shavqiyev E. R , Omonov D.E, Xolikov J.T ANCIENT RUINS OF SAMARKAND //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. Factor: SJIF 2018 = 6.125, Vol 9, No.1, January 2019. Indexed/ Abstracted : Published by “ SOUTH ASIAN ACADEMIC RESEARCH JOURNALS” <https://www.saarj.com>. Ulrich's Periodicals Directory, ProQuest, U.S.A., EB SCO Discovery, Summon(ProQuest), Google Scholar, CNKI Scholar, ISRA-JIF, GIF, IJIF

Avtoreferat «SamDU ilmiy axborotnomasi» jurnali tahririyatida tahrirdan o'tkazildi va uning o'zbek, rus va ingliz tili matnlari o'zaro moslashtirildi (____.2023).

2023 yil _____ da bosishga ruxsat etildi:
Ofset bosma qog'ozi. Qog'oz bichimi 60×84_{1/16}.
“Times” garniturası. Ofset bosma usuli.
Hisob-nashriyot t.: 2,75. SHartli b.t. 2,26.
Adadi 100 nusxa. Buyurtma № 02/02.

SamDCHTI nashr-matbaa markazida chop etildi.
Manzil: Samarqand sh, Bo'stonsaroy ko'chasi, 93.